

MIQDOR KONSEPTINING KOGNITIV VA LINGVOKULTUROLOGIK JIATLARI

Egamberdiyeva Nilufar Latibjon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti magistranti
egamberdiyevaN96@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada miqdor tushunchasi, izohlari, kognitiv tilshunoslik va miqdor konseptining kognitiv xususiyatlari, lingvokulturologiya yo‘nalishida konsept, miqdor lingvomadaniy konsept sifatida namoyon etuvchi jihatlari xususida mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: kognitiv tilshunoslik, kognitiv konsept, miqdor, lingvokulturologiya, lingvomadaniy konsept.

Zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlari ichida kognitiv lingvistika va lingvokulturologiya ham ilgari odimlab bormoqda. Ushbu sohalar rivojini esa ularning tadqiqiga bag‘ishlangan qator ilmiy ishlar va e’lon qilinayotgan maqolalar orqali ko‘rishimiz mumkin. Bizning ham bu maqolamiz shu ikki sohaning o‘zaro kesishish nuqtasiga oid deb hisoblasak to‘g‘ri bo‘ladi. Konsept kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslikning markaziy tushunchalaridan biri hisoblanadi va ikkala yo‘nalishda ikki xil xususiyatlarni namoyon etadi. Biz ham miqdor konseptining kognitiv va lingvokulturologik jihatlarini yoritishni maqsad qildik.

Avvalo, miqdor tushunchasi va uning qo‘llanish sohalari to‘g‘risida to‘xtalsak. Miqdor falsafiy, mantiqiy, lingvistik tushuncha sifatida keng qamrovni o‘z ichiga oladi. Izohli lug‘atlarda ham miqdorga uch xil ta’rif beriladi.

1. O‘lhash, sanash mumkin bo‘lgan narsalarning oz-ko‘pligi, soni, chamasi. Ko‘p miqdordagi suv.

2. Kesma uzunligi sirt yuzi, jism hajmi va massasi kabi tushunchalarning umumlashma nomi; kattalik(matematik)

3. Obyektning tashqi ko‘rsatkichlari(kattaligi, soni, hajmi), hodisalarning rivojlanishini ifodalovchi tushuncha.(falsafiy)[1]

Bizni qurshab turgan olamdagи har bir narsa o‘zida miqdor xususiyatlarini aks ettiradi. Miqdorning yuzaga kelishi haqida gapiriladigan bo‘lsa, son-miqdor insoniyat rivojining ilk bosqichlarida borliqning hisobini olish va undagi narsa-hodisalarni o‘lhash zarurati tufayli yuzaga kelganini ko‘rishimiz mumkin. Son va shakl tushunchalari qandaydir noma’lum mavhumiyatning mahsuli emas, ular faqat mavjud borliqdan olingan. insonning sanashni o‘rgangan, ya’ni ilk arifmetik hisoblash

amaliyotini o‘zlashtirgan o‘nta barmog‘i buni yaqqol ko‘rsatib turibdi, faqat bu erkin ijodiyzakovat mahsuli emas.[2]

Biz uchun esa miqdorning til birliklari orqali ifodalanadigan jihatlari muhimdir. O‘zbek tilida miqdor ko‘p qirrali hodisadir va u tilning barcha sathlarida namoyon bo‘ladi.

Til va tafakkur munosabatining uzviyligi, olamni bilishda tilning ahamiyati kabi masalalar mavjudligi sabab kognitiv tilshunoslik vujudga keldi [Safarov, 2013:283]. Kognitiv so‘zi ingilizcha so‘zdan olingan bo‘lib, “tushunmoq”, “bilmoq” ma’nolarini anglatadi. Kognitiv tilshunoslikning birlamchi funksiyalaridan biri til va ong munosabati, borliq jarayonlarini umumlashtirishda tilning ahamiyatini o‘rganish hisoblanadi.

Kognitiv lingvistikaning asosiy tushunchalaridan biri bu konseptdir. Ushbu atamaning kelib chiqishi tilshunoslikning psixologiya, sotsiologiya, falsafa kabi fanlar bilan yaqinlashuvi, genetik bog‘liqligi natijasidir. Konsept atamasi lotin tilidagi “concipere” to‘plamoq, ilib ketmoq, o‘ylab qolmoq, boshlab yubormoq ma’nolarini bildiradi [Safarov, 2013:12]. Kognitiv lingvistikada konsept til birliklarining ma’nosini bilan bog‘liq holda o‘rganiladi va shunga binoan tafakkur birligi sifatida qaralayotgan konseptni qoliplashtirishda til birliklariga xos xususiyatlarga tayaniladi. Demak, lingvokognitiv konsept tilshunoslikdagi u yoki bu lug‘aviy birlik, uning o‘ziga xos xususiyatlari va uning atrofida birlashuvchi ma’nolar yig‘indisidir.

Miqdorning kognitiv jihatlaridan biri sifatida, avvalo, uning konsept sifatida tadqiq etilishini ko‘rsatishimiz mumkin. Sh.Safarovning fikricha, kognitiv tilshunoslikning vazifasi til yordamida bilim olish, saqlash, tilni amalda qo‘llash hamda uzatish, umuman, til tizimi va tarkibini inson miyasidagi in’ikos sifatida tafakkur bilan bog‘lab, chuqur ilmiy tadqiq etishdir.[3] Demak, miqdor tushunchasining ham til vositalari, birliklari orqali inson tafakkuridan joy olishi kognitiv hodisa hisoblanadi. Kognitiv lingvistikada konsept til birliklarining ma’nosini bilan bog‘liq holda o‘rganiladi va shunga binoan tafakkur birligi sifatida qaralayotgan konseptni qoliplashtirishda til birliklariga xos xususiyatlarga tayaniladi.[Safarov:285] Demak, lingvokognitiv konsept tilshunoslikdagi u yoki bu lug‘aviy birlik, uning o‘ziga xos xususiyatlari va uning atrofida birlashuvchi ma’nolar yig‘indisidir.

Shu kunga qadar kvantitativlik bo‘yicha bir qancha olimlar izlanishlar olib borgan. Dastlab bu hodisa o‘zbek tilshunosligida otlardagi ko‘plik kategoriyalari, fe’llardagi shaxs-som kategoriyalari nomi ostida A.G’ulomov, Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyev, I.Rasulovlar tomonidan o‘rganilgan. Keyinchalik F.Safarov miqdoriy belgini o‘zbek tilida son-miqdor mikromaydoni sifatida tadqiq etgan. Miqdor ma’nosini tilning har bir sathida ko‘zga tashlanuvchi, turli vositalar, rang-barang shakllarda namoyon bo‘luvchi, alohida tahlil talab etuvchi murakkab tizimga egadir. Miqdorni

kategoriya sifatida o'rganish to'g'ri bo'lmaydi, chunki miqdor ifodalovchi birliklar lug'aviy, sintaktik, so'z yasovchi, fonetik, lisoniy va nolisoniy vositalar orqali namoyon bo'ladiki, bu sistemaning birliklari tilning turli sathiga mansubligini ko'rsatadi. Biz o'z tadqiqimizda miqdor bildiruvchi vositalarni to'la qamrab olish uchun konsept tushunchasi ostida birlashtirishga harakat qildik.

Miqdor konseptini ifodalashda fonetik vositalar(ohang, tovush takrori, urg'u), leksik vositalar(miqdor semasiga ega bo'lgan leksemalar, frazeologik birliklar, noadabiy so'zlar, atamalar), morfologik vositalar(so'z turkumlari, morfemik birliklar), sintaktik vositalar(gap bo'laklari, undalma, kirish so'zlar, so'z birikma, soda va qo'shma gaplar) ishtirok etadi.

O'zbek tilida miqdor ma'nosining yuzaga chiqishini ta'minlovchi fonetik, leksik, grammatik vositalar ko'pligini, ayniqsa, morfologik sathda so'z turkumlari yordamida miqdor ma'nosining ifodalanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ko'rish mumkin .

Antroposentrik nazariya asosida tilshunoslikda ko'plab yangi sohalar vujudga kela boshladi. Lingvokulturologiya ham ana shunday yangi tug'ilgan soha sifatida jadal rivojiana boshladi. Uning paydo bo'lishiga so'ngi asrlarda "til madaniyat bilan bog'liq bo'lib qolmasdan, balki uning o'zi madaniyatdan o'sib chiqqan va uni ifodalarydigan vositadir" degan nazariya ham sabab bo'lgan.

N.Alefirenko lingvokulturologiyani quyidagicha ta'riflaydi:

-lingvokulturologiya tilshunoslik va madaniyatshunoslik bilan chambarchas bog'langan bo'lib, u sintezlovchi xususiyatga ega;

-lingvokulturologiya tilshunoslik fanlariga kiradi, shuning uchun uning tadqiqot natijalaridan ona tili va chet tiini o'qitish jarayonida amaliy foydalanish mumkin.;

-lingvokulturologiya tadqiqotlarining asosiy yo'nalishlari: a) lisoniy shaxs; b) til madaniy qadriyatlarining semiotik gavdalantirish tizimi hisoblanadi.[4]

Lingvokulturologiya va kognitiv tilshunoslikdagi konsept atamasi, ularning izohi va vazifasi bir-biridan farq qidi. Lingvokulturologik birlik sifatida konsept ikki xususiyatga egadir. Bir tomonidan, madaniyat konsept ko'rinishida insonning mental dunyosiga kirs, boshqa tomonidan, inson konsept yordamida madaniyatga kiradi va ba'zan unga ta'sir ko'rsatadi. Inson o'zining individual, betakror madaniyatini saqlagan holda, konsept orqali xalqlarning madaniyatiga, turli milat vakillarining mental dunyosiga murojaat qiladi.[5] Demak, konsept lingvokulturologiya sohasida xalqlar madaniyatining alohida jihatlarini o'zida aks ettiruvchi, til egalari dunyoqarashi modelini ko'rsatuvchi, millat milliy xarakterinig shakllanishiga ta'sir etuvchi lingvomadaniy vositadir.

Miqdor konseptiga munosabat, uning qabul qilinishi turli til egalarida turlicha bo'ladi. Chunki konsept ham xalq ijtimoiy ongi, qadriyatları asosida shakllanadi.

Miqdor vositalari xalq diniy qarashlari, urf-odatlari ta'sirida alohida baholanishi mumkin. Miqdor konseptining bu jihatlari esa yangi izlanishlarga yo'l ochadi. "Miqdor, sanoq" konseptining umummadaniy mazmuni, madaniyatning boshqa hamma konseptlari singari matematikadagi sanoq ilmiy tushunchasidan tubdan farq qiladi. Hatto ilmiy nuqtayi nazardan xato hisoblanishi ham mumkin. Tilga xos belgi nafaqat lingvistik, balki ekstral Lingvistik ta'sirlarga ham uchraydi va qo'llanishda qo'shimcha ma'nolarga ega bo'ladi. Shuning uchun barcha tillarda miqdor semantikasi uchun xos bo'lgan umumiyligi, haqiqiy ma'no nutqiy ifodalishda madaniyat bilan bog'liq ravishda sifatiy hamda baholovchi ma'nolar ham kasb etadi.[6]

Madaniyat konseptlarini A.Ya.Gurevich ikki guruhgaga : fazoviy va universal kategoriyalarga bo'ladi. Biz e'tibor markaziga tortgan miqdor konsepti ham universal kategoriyalarga kirgan holda, o'zbek xalqiga xos bo'lgan xususiyatlarni ham o'zida aks ettiradi.

Miqdor konsepti o'zbek xalqida uning "o'sib borishi, ko'pligi" sifatida shakllangan. Ya'ni to'y va boshqa marosimlarda ham mehmonlar sonining ko'pligi, dasturxon, mazar, sarpolar sonining ko'pligi kabi. Shuningdek, raqamlarga ham alohida yondashuv mavjud. Masalan, bir soni diniy jihatdan yagonalik, tanholik konseptini aks ettiradi. Ikki soni bir tomonidan yomon baho taassurotini uyg'otsa, bir tomonidan juftlik, do'stlik, sheriklik ma'nolarini anglatadi. Ikki yorti - bir butun. Shu kabi ba'zi raqamlar o'zbek xalqi ongida "sehrli raqamlar" sifatida joy olgan. Uch, yetti, to'qqiz, qirq kabi. Bu raqamlar folklor, ertaklar, xalq marosimlarida baravar qo'llaniladi. Sehrli raqamlar tushunchasi ibrido davrda insonlarni yovuz kuchlardan panoh beradi degan g'ayriimiy tasavvurlar asosida shakllangan va hozirga kelib ko'p ishlatilish odat tusiga kirgan. Yetti soni dunyoning yetti mo'jizasi, xalq kundalik turmushidagi yetti xazina kabilarni ifodalaydi. So'zlashuv nutqida millionta, trillionta, yuz minglab kabi sonlarni uchratamiz, ular aniq matematik miqdorni emas, balki mubolag'ali ifodalash usuli bo'lib "ko'p", "judayam ko'p" ma'nolarini anglatadi.

Miqdor ma'nosini ifodalashda o'zbek xalqiga xos bo'lgan shunday so'zlar mavjudki, bu ham ularning lingvokulturologik xususiyatlariga ishora beradi. Masalan:

- 1.Do'ppidek inda uchta bolasining boshi ko'rinyapti.(O'.Hoshimov)

2. Har ko'zi piyoladek oyna taqib yuradi.
3. U qozondek do'ppisini boshidan yechib tutqazdi.

Ushbu gaplarda qo'llangan do'ppidek, piyoladek, qozondek so'zları o'zbek xalqiga xos kundalik-turmushida ishlatiladigan vositalar bo'lib, ko'p miqdor ma'nosini ifodalashga xizmat qilgan. Birinchi gapdag'i do'ppi so'zi asl ma'nosiga ko'ra o'zbek xalqining milliy bosh kiyimi hisoblanib, keltirilgan misolda do'ppidek kichkina uy ma'nosida qo'llanilgan. Do'ppi so'zining kichik, ozgina ma'nosida qo'llanilishi o'zbek millati vakillariga tushunarli bo'lishi, lekin tarjima qilinganda boshqa millat

vakili uchun tushunarsiz bo‘lishi mumkin. Buning uchun esa alohida izoh yoki millat madaniyati, turmushiga alohida e’tibor qaratish kerak bo‘ladi. Keyingi gaplardagi piyola, qozon so‘zлari shakliga oid miqdor ma’nosini ifodalashga xizmat qilgan lingvokulturologik birliklardir. Millatning ko‘zgusi til va adabiyoti deyilganidek, xalq etnomadaniyati folklor asarlar, paremiologik birliklarda ko‘proq namoyon bo‘ladi. Maqol, topishmoq matnlarida qo‘llanilgan son-miqdor bildiruvchi birliklar shu xalqning boshqa xalqlardan farqlanuvchi madaniy hayotini aks ettirib beradi. Masalan:

Bir palak,

Bir palakda

O‘n ikki handalak,

Bu handalakning o‘n birini yeb,

Bittasini yeya olmadik.

(Yil, o‘n ikki oy, bir oy ro‘za).

Bu o‘rinda berilgan topishmoqda o‘zbek xalqining urf-odatlari, diniy e’tiqodiga moslik bor. Islomiy e’tiqodlarga asosan bir yil davomida bir oy ro‘za bo‘lishi nazarda tutilgan: palak – yil – bitta; handalak – oy - o‘n ikkita; ro‘za oyi – bitta. Ko‘rinadiki, bu topishmoqda xalq etnomadaniyati bilan bog‘liq belgi differensial sema sifatida topishmoqning javobi uchun asos bo‘lgan, aynan son-miqdor bildiruvchi o‘n bir va bir so‘zлari ramazon oyini aniqlashda vosita bo‘lgan.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, tilshunoslikning yangi sohalari rivojlanishi tildagi birliklarga yangi yondashuv bilan qarashga yordam beradi. Bu esa o‘ziga xos jihatlarni kashf etadi. Miqdor konseptiga nisbatan kognitiv va lingvokulturologik yondashuv ham son-miqdorga oid yangi konseptchalarni kashf etgani holda, miqdor konsepti va konseptosferasini tashkil qilishga yo‘l ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati 5 том
2. N.Otaqulov. Fransuz, o‘zbek va rus tillarida subkollokviyal mezurativ frazeologizmlar xususiyatlari. O‘zmu-2021, 3-bo‘lim. 263-266 b.
3. Sh.Safarov. Semantika. “O‘zbekiston milliy ensikopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti. T. 2013. 283-b.
4. Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно смысловое пространство языка. Учебное пособие. – М; Флинта, Наука, 2010. –с 21.
5. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. Toshkent-2019. 40-46 b.
6. Mamajonova M. Borliqni miqdoriy bilish. Zamonaviy tilshunoslikdagi muammo va yechimlar. Andijon-2021.